

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIIY O'QITISH VOSITALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.

**Ergasheva Muxlisa Abdulla qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

**Qulmo'minov O'rolboy Safar o'g'li**

Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlag'ich ta'lim tabiiy fanlar darslarini tashkil etish jarayonida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda o'qitish vositalaridan foydalanish va ularning turlari, dars jarayonidagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** multimediya, interfaol, dars, ta'lim, AKT, taraqqiyot, renessans, tafakkur, dunyoqarash, tabiat, ekskursiya va boshqalar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish jarayonini tashkil etish va unga turli usullar yordamida yondoshish juda katta bilim, malaka, kònikmani talab etadi. Olinayotgan va berilayotgan har qanday bilim muayyan aniq adabiyotlarga asoslangan va puxta rivijlantirilgan xususiyatga ega bo'lmo'gi lozim. O'quvchilar birinchi sinfdan boshlab tabiatni va tabiat bilan bog'liq holda mehnat faoliyatini ekskursiyalar va predmetli darslarda va o'qish kitobidan geografiya mazmunidagi maqolalar hamda "Tabiiy fanlar" ni o'qish jarayonida bevosita kuzatishlar yo'li bilan o'rganadilar. Bu mashg'ulotlarda o'quvchilarning fikrlash faoliyatini tashkil qilishga yordam beruvchi har xil jihozlardan va avvalo ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi. Dars jarayonini tashkil etishda o'quvchilarning individualliligiga va qabul qilish darajasiga alohida e'tibor berish va o'tilayotgan mavzuning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib yondoshish va uni tashkil etish talab etiladi. Agar olib borilayotgan mavzum uchun tanlangan vositalarimizga amaliy jihatdan yondoshish talab etilsa, ana shu muhitni tashkil etish lozim. Tabiiy fanlar o'quv xonasi uchun alohida xona bo'lishi, shuningdek, psixologik, pedagogik, gigiyenik va estetik talablarga javob berishi talab etiladi. O'simlik va hayvonlarni imkoniyatga qarab geografiya xonasi yoki sinfdan joylashtiriladi. Tabiiy fanlar o'quv xonasi yorug' bo'lishi, deraza ro'parasiga qo'yilgan har xil tagliklarga suv hayvonlari hamda o'simliklari bo'lgan akvariumlarni qo'yish qulay bo'ladi.

Ko'rgazmali qurollarga tabiiy yoki haqiqiy ob'ektlar va ularning mulyaji, surati, rasmi, chizmasi kiradi. O'qitishda diafilm va kinofilmlar, teleko'rsatuvlar, multimediya va o'qitishning boshqa texnika vositalari tobora keng qo'llanilmoqda. Har qaysi ko'rgazmali qurollar muayyan maqsadni ko'zlab qo'llaniladi.

Tabiiy ko'rgazmali vositalar - bu tabiat jismlaridir. Ular o'rganilayotgan material to'g'risida ancha haqiqiy tasavvurlar beradi va bolalarda bevosita qabul qilish asosida geografiya tushunchalari hosil bo'lishiga imkon beradi. Tabiiy ko'rgazmali qurollarga - o'simliklar tirik namunalari barcha organlari bilan, tayyor gerbariyalar, urug'lar to'plami, fiksasiyalangan (ho'l) preparatlar, guldastalar, hayvonot olamining tirik namunalari, skelet va tulumlar, hasharotlar kolleksiyasi, qushlarning tuxumlari va uyalari, loy, qum, daryo toshlari, shag'al, suv, qushlarning pati, minerallar kabilar kiradi. Bular jonli va jonsiz tabiat jismlariga bo'linadi.

Tirik tabiatni o'rganish uchun har xil xona o'simliklari, shuningdek, o'z joylarining daraxtlari uchun xos bo'lgan shoxchalar, barglar, gullar, meva va urug'lar bo'lishi zarur. Tabiiy fanlarni o'qitishda jonli tabiat burchagida o'stirilayotgan o'simliklardan, shuningdek, gerbariy va ekskursiyadan olib kelingan o'simliklardan foydalaniladi. Tabiatda o'tkaziladigan darslar vaqtida va ekskursiyalarda tabiiy sharoitlardagi jonli tabiat ob'ektlaridan foydalaniladi.

Shuningdek, tabiiy obyektlardan hayvonlarni o'rganishda ham foydalanish ma'qul. Garchi ko'pgina hayvonlarni bolalarga sinfdagi (jonli tabiat burchagida) ko'rsatish mumkin bo'lsa ham ekskursiyalarga afzallik berish kerak bo'ladi, chunki bunda o'quvchilar faqat ularning tashqi ko'rinishini ko'rishgina emas, balki xarakterli harakatlari va xulq-atvorlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tirik hayvonlar bo'lmaganda ularning chuchelalari (tumlari), mulyajlari yoki fotosuratlar va rasmlaridan foydalanish mumkin. Har bir darsda turli vositalardan foydalanish juda katta foyda olib keladi.

Tasviriy ko'rgazmali vositalar. Tabiiy fanlarni o'qitishda o'qituvchi o'quvchilarga ular hali ko'rmagan ko'pgina obyekt va hodisalar to'g'risida ma'lumotlar beradi. Biroq eng jozibali va qiziqarli hikoya ham, agar yaxshi surat ko'rsatilmasa, yetarli to'liq va yorqin tasavvurlar bera olmaydi. Faqat suratlarni diqqat bilan ko'rib chiqish orqali tabiiy holdagi jism bilan tanishishdagiga yaqin keladigan taassurotlarni hosil qilish mumkin. Tasviriy ko'rgazmali qurollarga -jadvallar, suratlar, sxemalar, qismli rasmlar, gulqog'ozlar to'plami,

xarita, globusa, modellar, mulyajlar, plakatlar, proeksion apparatlar va ekran vositalari kiradi. qilishdir.

O'qitishning texnikaviy vositalari. Berilayotgan ma'lumotning o'quvchi tomonidan qisqa vaqt ichida kafolatlangan yuqori natijalar bilan O'zlashtirishni ta'minlaydigan ilg'or pedagogik innovatsion hamda axborot kommunikatsion texnologiyalari (AKT) bugungi kunning talabi bilan jahon standarti asosida maktab tizimiga sekin-asta bòlsada kiritilmoqda.

Mul'timediali ta'lim vositalari va ularni qollanilish usullari.

Mul'timediali ta'lim vositalari ikki turga bo'linadi:

1. Monitor ekranidan to'g'ridan to'g'ri bilim berishga mo'ljallangan vositalar (elektron qo'llanma, mashg'ulotlar ishlanmasi, kompyuterli ekskursiya, kompyuterli ta'limo'yinlari va boshqalar).

2. Ko'rgazmali qurol (didaktik vosita sifatida foydalanish uchun mo'ljallangan vositalar, slaydlar, taqdimotlar, jadvallar va boshqalar).

Oxirgi davrda ta'lim muassasalarida keng foydalanish uchun Respublikamizda multimediali ta'lim vositalarini ishlab chiqish yo'lga qo'yilgan. Jumladan, shunday ta'lim vositalari-manbalari xalq ta'limi vazirligiga qarashli multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlanish markazida tayyorlanmoqda. Ikkinchi manba, internet ashyolari hisoblanadi. Internet tarmog'iga turli sohalar bo'yicha, shu jumladan boshlang'ich ta'lim muassasalari uchun ko'plab multimedia vositalari joylashtirilgan. Foydalanuvchi tegishli slaydlardan tegishli multimedia vositalarini topib, ulardan umumta'lim maktablarining ta'lim va tarbiya jarayonini jadallashtirish maqsadida foydalanishi mumkin. O'qitilayotgan har bir tabiiy fañ darslarida kòrgazmalardan foydalanish juda katta foyda olib keladi. O'quvchilarning dunyoqarashiga ,tafakkutiga va barcha atrofidagi tabiatning va undan keladigan turli emotsilalarga turli fikr bildirishni va uni tanqid qila olishni òrganadi. Vositalarning bunday turlaridan foydalanish va qay birini qaysi muhitda qòllay olish lozim ekanligini bilish juda ahamiyatlidir. Agar qòllagan vositangiz ish berishini xohlasangiz doimo mavzuga va muhitga e'tiborliroq bòling. O'quvchilar har qanday ma'lumotlarni tezda qabul qiladi va unga reaksiya qaytara oladi. Shuning uchun òqituvchidan javob reaksiyalarni tayyor turishini ,vositaalrning ahamiyati haqida aytib bera olishini talab etadi.

Xulosa qilib shuni aytosh mumkinki, Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, haqiqatan ham, insonni ma'naviy jihatdan yuksaltirishda, avlodlar ruhiga ajdodlarning milliy qadriyat va an'analarini singdirishda, inson qalbini poklashda hech bir manba kitob, ayniqsa, badiiy

adabiyotning o'rnini bosa olmaydi. Shunday ekan, badiiy adabiyotni, ta'lim tizimining yangi o'qitish usullarini o'rganish har jihatdan o'rganish barchamizning ustuvor vazifalarimizdan biridir. O'zbekiston milliy ta'lim-tarbiya jarayonida multimedia vositalarini qo'llash tajribasi shakllanib bormoqda. Negaki bu ayni vaqtda zamon talabidir. Bugungi kunda tabiiy fan sifati va samaradorligini oshirishda kompyuter va axborot texnologiyalarining zamonaviy texnologiyalaridan samarali foydalanish asosiy omil hisoblanmoqda. "Multimediali darslar" dan foydalanish fizika va kimyo fanlari dars jarayonida sifat va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Multimedia yoki raqamli o'quv resurslari o'quvchilarga axborotni qayta ishlashni qo'llab-quvvatlovchi turli xil media elementlaridan foydalangan holda aqliy tasavvurlar bilan yaxshi munosabatda bo'lishga yordam beradi. Ta'lim uchun multimediadan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rasm va so'zlarni birlashtirishgan o'quvchilarda faqat so'zlardan foydalanadiganlarga qaraganda ko'proq ijobiy natijalar kuzatilgan.[2] Yuqori sinf o'quvchilari uchun o'qitish va o'rganish jarayonida multimedia qo'llash vositalarining ba'zi afzalliklari quyidagicha umumlashtiriladi: 1. Mavhum tushunchalarni aniq tarkibga aylantirish qobiliyati 2. Cheklangan vaqt ichida katta hajmdagi ma'lumotlarni kamroq harakat bilan taqdim etish qobiliyati 3. Qobiliyatli o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirish 4. O'qituvchiga o'quvchilarning ta'limdagi pozitsiyasini bilish qobiliyatini beradi. Multimedia vositalari pedagogik nuqtayi nazaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilishida kompyuter asosida yangicha yondashuv hisoblanadi. Shu orqali, o'quvchilarda ta'lim jarayonining samaradorlik darajasini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Komil, ma'nan yetuk avlodning shakllanishida sifatli ta'lim muhim o'rin tutadi. Uning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish va tatbiq etish biz bo'lajak pedagoglarning zimmamizdagi asosiy maqsad bo'lmog'i lozim. Ta'limni integratsiyalash fikri xalq ta'limida tabaqalashtirish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshlandi. Agar kichik maktab ta'limini tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida qiziqishlarni faol shakllantirishni taqozo etsa, integratsiyaning asosi qilib, turli fanlarni o'rganish obyektlari bo'lgan ba'zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIGOTLAR RO'YXATI :**

1. D.SHARIPOVA, D.P.XODIYEVA, M.K.SHARIPOV. TABIATSHUNOSLIK VA UNI O'QITISH METODIKASI. DARSLIK.T.“BARKAMOL FAYZ MEDIA” NASHIRIYOTI. 2018. - 456 B.
2. M.NURITDINOVA. TABIATSHUNOSLIKNI O'QITISH METODIKASI. T.:O'QITUVCHI. -2005 Y. - 240 B.
3. Kulmuminov, U., & Mukhtarova, L. (2023). POSSIBILITIES OF CREATIVE THINKING AND ITS MANIFESTATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Open Access Repository, 4(02), 81-84.
4. Kulmuminov, U. (2023). CREATIVE TEACHING IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE EDUCATION. Open Access Repository, 4(2), 434-437.
5. KULMOMINOV, O. (2023). ISSUES OF DEVELOPMENT OF STUDENT'S CREATIVE SKILLS IN WORLD SCIENCE. World Bulletin of Social Sciences, 27, 54-56.
6. Kulmominov, O. (2023). TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN NATURAL SCIENCE TEACHING. Open Access Repository, 9(10), 112-116.
7. Babamuratov, E., Ulmashon, D., & Zhurabek, Z. (2023). METHODS OF IDEOLOGICAL WORK FOR YOUTH WITH IDEOLOGICAL DEPRESSION. World Bulletin of Social Sciences, 27, 136-143.
8. Jovliev, J. (2023). EDUCATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN THE SPIRIT OF NATIONAL AND GENERAL HUMAN VALUESTECHNOLOGY. Open Access Repository, 10(10), 51-55.